



## XONANDALARNI IJRO JARAYONIGA TAYYORLOVCHI INTENSIV OVOZ MASHQLARI

**Suhrob Jumayev**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom xonandaligi" kafedrasida "Ovozni yo'lga qo'yish" fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xonandalarning ovozini ijro jarayoniga tayyorlash va asarlarning yetuk ijrosini ta'minlash vokal pedagoglarining eng muhim vazifalaridandir. Quyidagi maqolada mashqlardan oldin xonandalar uchun talab etiladigan tayyorgarlik holatlari aytib o'tiladi. Intensiv ovoz mashqlariga misollar nota shaklida keltiriladi. Bu mashqlar xonandaning qaysi jihatlariga foyda berishi mashq oldidan ularga berilgan ta'riflarda aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Intensiv, ovoz mashqlari, artikulyatsiya, registr, diafragma.

Xonandalarning ovozi bilan ishlashda pedagog avvalo e'tibor berishi lozim bo'lgan jihatlar bor. Bular albatta xonandaning ushbu jarayonga tayyorligini tekshirishdir. Asar ijro qilmoqchi bo'lgan xonanda avvalo yengil ovoz mashqlarini bajarib olishi kerak bo'lganidek, ushbu mashqlardan oldin ham maxsus tayyorgarlik kerak bo'ladi. Bu tayyorgarlik to'rt ko'rinishga bo'lindi. Bular:

1. Xonandaning jismonan salomatligi;
2. Xonandaning organizmining yetarli darajada dam olganligi (bunda uyquni tushunish mumkin);
3. Xonandaning organizmining yetarli darajada oziqlanganligi (bunda ovqatlanish tartibining samarali olib borilishi ham ko'zda tutiladi).
4. Xonandaning psixologik tayyorligi (ya'ni kayfiyatning ijobiy holatda bo'lishi ham muhimdir).

**Intensiv** bu ortiq darajada jadal, tez, qizg'in, eng ko'p mahsul beradigan, serunum ma'nolarini beruvchi so'zdir: "**Intensiv** [fr. intensif < lot. intensio – g'ayrat qilish; kuchayish] **1** Ortiq darajada jadal, tez, qizg'in. **2** Eng ko'p mahsul beradigan, serunum".<sup>1</sup>

Ushbu istilohni aynan quyida keltiriladigan ovoz mashqlariga nisbatan ham qo'llash ko'zda tutiladi. Chunki bugungi kunda metodlarning yanada samaralisi, uslublarning yanada foydali turlari ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda qisqa vaqt ichida samarali ovoz mashqlarini bajarib olish ehtiyoji ham tug'ilmoqda. Chunki jonli ijroga asoslangan konsertlardan oldin turli

<sup>1</sup> ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. "И" ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОЙЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент. (Kitobning elektron versiyasi [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi saytidan olindi.) 216-217-betlar.



vaziyatlar bo'lib qolishi mumkin. Misol uchun xonandaning ijro maydoniga turli sabablarga ko'ra kechikib kelishi, ijro etilishi kerak bo'lgan yengil asarning nisbatan murakkabiga o'zgartirilishi kabi holatlarni keltirishimiz mumkin. Bunda ovoz mashqlari faqat murakkab asarlar oldidan bajarilishini ta'kidlamoqchi emasmiz. Ovoz mashqlari ijro etiladigan barcha asarlardan oldin zarurdir. Lekin ba'zi murakkab asarlar bor. Ulardan avval maxsus ovoz mashqlari bajarib olinmasa, xonandada noqulaylik paydo bo'ladi. Ijro jarayoniga kirishayotgan xonanda avvalambor ovoz mashqlarini bajarib olishi kerak bo'lganidek, ovoz mashqlarini bajarishga kirishayotganda ham ma'lum darajada jismoniy tayyorgarlik talab etiladi. Bunda bo'yin mushaklarini faollashtiruvchi yengil bosh harakatlari va bo'yinni uqalash kabi harakatlar bajariladi.

### Ovoz sozlash mashqlari:

1. Quyidagi ovoz mashqi xonandalar uchun o'ta muhimdir. Mashq bir nafasda, burundan nafas olgan holatda amalga oshiriladi. Og'iz bo'shlig'i yopiq holatga keltiriladi va til bilan tanglay orasida bo'shliq hosil qilinadi. Bu bo'shliqning hajmi yong'oq kattaligi atrofida bo'ladi. Aytilganidek lab yumilgan holatda uzluksiz "M" undoshiga o'xshash tovush hosil qilinadi:





2. Navbatdagi ovoz mashqi birinchisining mantiqan davomi bo'lib, ovozi o'ziga qiyin bo'ysunuvchi xonandalarga qo'shimcha tarzida tavsiya etiladi. Ushbu mashq majburiy bo'lmasa-da, uni bajarish foydali bo'ladi:



3. Ushbu mashqda xonandaning nafasini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Imkoniyatga qarab bu ovoz mashqi qanchalik sekin amalga oshirilsa shunchalik yaxshi bo'ladi. Sekin sur'atda amalga oshirilganda har bir bosqichdan so'ng xonanda "chanqoqlik" bilan nafas olishga intiladi. Bu esa o'z navbatida o'pkaning xonandalik jarayonida faollashishiga olib keladi. Xromatik tarzda yuqorilab boruvchi barcha ovoz mashqlarining sur'ati borgan sari tezlashtirilib borilishi ma'qul. Chunki yuqori pog'onalarda nafas sarfi oshib boradi va xonanda borgan sari navbatdagi xromatik tarzda ko'tarilgan bosqichda avvalgisiga qaraganda oz fursatda o'pkasidagi havoni tugatib boradi.



**Moderato**

Mi - ya - me

mo Mi

- ya - me - mo

Navbatda esa registr tushunchasiga to‘xtab o‘tiladi. “Registr nomlari kuylovchining ma’lum sezish alomatlaridan kelib chiqqan. Masalan, birinchi registr tovushlari ko‘krakdan keladi, shu boisdan “ko‘krak registri”, uchinchi esa boshga ta’sir etgani sababli “bosh registri” deb yuritiladi. Ammo bu nomlar asl mohiyatiga aytarli to‘g‘ri kelmaydi. Chunki tovush hiqildoqda paydo bo‘ladi. Faqat quyi tovushlar sadosi ko‘proq ko‘krak bo‘shlig‘ida, ya’ni hiqildoqdan pastroqda joylashgan bo‘shliqda, yuqori tovushlar esa hiqildoqdan yuqoriroqda joylashgan bo‘shliqda seziladi.

Registr nomlariga kelsak, o‘quvchilar chalg‘imasligi uchun quyidagi tartibda belgilangan:

- Birinchi registr – “ko‘krak” registri;
- Ikkinchi registr – “aralash” registri;
- Uchinchi registr – “bosh” registr”.<sup>2</sup>

Ovoz mashqlarini boshlaganda albatta pastki pog‘onalar jarangi oson kechmasligi mumkin. Ammo ko‘krakdan olingan nafas bilan bajarilganda jarang nisbatan kuchayadi. Yuqori pog‘onalarga chiqayotganda esa xonanda o‘pka diafragmasidan unumli foydalana olishi kerak. “Qoringa olingan nafas” deya

<sup>2</sup> Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015. 10-bet.



tushuntiriladigan bu nafas xonandaga yuqori pogʻonalarda kuylay olishi uchun tayanch boʻladi.

“Oʻquvchi xonandalikdan tashqari undoshlarning talaffuzi ustida ishlashi darkor, soʻzlarning aniqligi ularga bogʻliq. Shuni taʼkidlash lozimki, ovoz qoʻyilish – bu xonandalikning elementar, “grammatika”si aniqrogʻi “leksikasi”dir... Xonandalikning eng yaqin “doʻstlari” sonor: “M”, “N”, “R”, “L” tovushlaridir ularni talaffuz qilishda tovush paychalari xuddi unilarni talaffuzi paytidagidek titraydi. Ovozning bir maromdagi ravon goʻzal jaranglashi – kuylashning badiiy asosi boʻlib hisoblanadi”.<sup>3</sup> Shu bilan birga artikulyatsiya mashqlarini muntazam bajarib boradigan xonanda oʻzi uchun qiyin talaffuz etiladigan asarlarning ijrosini yengillashtirgan boʻladi. “**ARTIKULYATSIYA** (nem. articulatio, lot. articulo – mayda boʻlaklarga boʻlaman) – musiqa cholgʻu asboblari va ashulachi ovozida surunkasiga kelgan tovushlarni ijro etish usullari. A. turlari koʻp boʻlib, asosiylari – legato, stakkato, glissando, portamento. A.ning toʻgʻri bajarilishi musiqa asarini badiiy va taʼsirli chiqishiga yordam beradi”.<sup>4</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ. “И” ҳарфи. А. Мадвалиев таҳрири остида. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АЛИШЕР НАВОИЙ НОМИДАГИ ТИЛ ВА АДАБИЁТ ИНСТИТУТИ, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент.
2. Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
3. Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017.
4. Razzoqova M. Akademik xonandalik asoslariga kirish: Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2015.

#### Foydalanilgan saytlar:

5. <https://izoh.uz/word/intensiv?ysclid=lvq2fslxxd226584404>
6. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

<sup>3</sup> Mamikonyan T. Yakka xonandalik. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti, 2017. 26-27-betlar.

<sup>4</sup> Акбаров И. Музыка луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 22-бет.